

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 RAQAMLI ILMY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NORMURODOV BOBOMUROD RUZIMURATOVICH

YOG‘LI KOMPOZITLARNI OLISH, KIMYOVIY MODIFIKASIYALASH
TEXNOLOGIYASI VA ULARNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Technical
Sciences**

Normurodov Bobomurod Ruzimuratovich

Yog‘li kompozitlarni olish, kimyoviy modifikatsiyalash texnologiyasi va
ularni qo‘llash imkoniyatlari..... **3**

Normurodov Bobomurod Ruzimuratovich

Технология получения жировальных композиций, химической
модификации и возможности их применения..... **19**

Normurodov Bobomurod Ruzimuratovich

The technology of obtaining fat compositions, chemical modification and the
possibility of their application..... **37**

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... **40**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 RAQAMLI ILMY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NORMURODOV BOBOMUROD RUZIMURATOVICH

YOG‘LI KOMPOZITLARNI OLISH, KIMYOVIY MODIFIKASIYALASH
TEXNOLOGIYASI VA ULARNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T3725 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot - ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Do‘stov Sayfullo Idiyevich

kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kamolov Luqmon Sirojiddinovich

kimyo fanlari doktori, professor

Jumayeva Zulxumor Ergashevna

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24 aprel soat 1400 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 7 » aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil « 7 » apreldagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A. Umbarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh. A. Kasimov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

R. V. Alikulov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda terini qayta ishlash korxonalarida qo'llanilayotgan kimyoviy materiallar assortimentlarining yuqori sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida ishlab chiqarilayotgan tabiiy charm mahsulotlarga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, charm yarim mahsulotini yog'lantirish jarayoni uchun pilla g'umbagidan yog'ni ajratib olish, ularni kimyoviy modifikatsiyalash hamda ular asosida yog'li kompozit materiallar olish ularni funksional material sifatida qo'llash imkonini beradi. Shunga ko'ra, pilla g'umbagi yog'i asosidagi yog'li kompozitlarning termal, mexanik va sorbsion xususiyatlarini yaxshilash ularning texnologik xususiyatlarini oshishiga va import mahsuloti hisoblangan kimyoviy materiallar sarfini kamaytirishga qaratilgan samarali resurstejamkor texnologiyalarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yog'li kompozitlarning polimerlanishi, katalitik o'zgarishlar va funksional guruhlar bilan modifikatsiyalash usullariga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, yog'li kompozitlarning barqarorligini oshirish uchun kimyoviy modifikatsiyalash usullarini hisobga olgan holda, muqobil texnologiyalarini ishlab chiqish, kimyoviy tarkibini aniqlash, xossalarini o'rganish, ipakchilik sanoatining yonaki mahsuloti pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari asosida charmni yog'lantirish jarayoni uchun import o'rnini bosuvchi yog'lovchi kompozitsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, ularning sanoat, farmatsevtika va ekologik muhitdagi qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda yuqori sifatli charm va charm-poyabzal mahsulotlariga bo'lgan yuqori talab jahon hamjamiyatida ham, mamlakatda ham o'zgaruvchan tendensiyalarni hisobga olgan holda sohani yanada rivojlantirishni oldindan belgilab beradi, bu esa terini qayta ishlashda qo'llaniladigan kimyoviy moddalarni qayta ko'rib chiqish, ularni mahalliyashtirish, samaradorligini oshirish imkonini beruvchi keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi"¹da iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada, jumladan, ipakchilik sanoatining yonaki mahsuloti pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari asosida yog'lovchi kompozitsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020 yil 2 martdagi PF-5953 sonli "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ 3983-sonli "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 24 fevraldagi PQ-73-sonli «Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

hamda 2021 yil 8 fevraldagi PQ-4982-sonli «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari va ushbu yo'nalishda qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. « Kimyo, kimyo texnologiya va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yonaki mahsulotlardan yog'lovchi moddalar olish va ularning turli sanoatlarda qo'llanilishi bo'yicha xorijda ko'plab olimlar shug'ullangan bo'lib, ular qatoriga Marchetti J.M., Lou W.Y., Chen J., Miranda A.C., Zhang J., Supple B., B. Chhetri, K. C.Watts, M. R. Islam, Yorgancioglu A., Kusdiana D., El-Shahat., V. Sivakumar, Vikulina D.A., Mukatova M. D., Pojidaev V. M., Xak I., Agadjanyan A.E., Shamxanov CH.YU., I.A. Permyakova, Vashenko O.G., Mezenova O.Ya., B.F. Petrov, M.D. Mukatova va boshqalar kiradi.

Yog'li kompozit materiallar bo'yicha tadqiqotlar asosan tabiiy va sintetik yog'lar asosida olinadigan kompozitlarning sintezi, kimyoviy modifikatsiyasi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini baholashga yo'naltirilgan. Ilmiy adabiyotlarda yog'li kompozitlarning polimerizatsiya, katalitik o'zgarishlar va funksional guruhlar bilan modifikatsiyalash usullari keng o'rganilgan bo'lsada, ularning sanoat, farmatsevtika va ekologik muhitdagi qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yangi modifikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha rivojlanmagan. Ayniqsa, yog'li kompozitlarning termal, mexanik va sorbtion xususiyatlarini yaxshilash, ularni funksional material sifatida qo'llash imkoniyatlarini oshirish yo'nalishida ilmiy bo'shliq mavjud bo'lib, bu mavzudagi tadqiqotlar organik moddalar kimyosi va texnologiyasida dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda yonaki mahsulotlardan yog'lovchi moddalar olish, ular asosida charm va mo'ynani yog'lantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar S.Sh. Rashidova, Qodirov T.J., Do'stov S.I., Temirova M.I., Shamsiyeva M.B., Maxammadiyeva X.N., Rustamov B.I. va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan yog'lovchi moddalar turli sanoatlarda, jumladan charmni yog'lantirish texnologiyasini takomillashtirishda muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, ammo hozirga qadar O'zbekistonda charmni yog'lantirish jarayonida modifikatsiyalangan yog'lovchi moddalarni qo'llash masalalari bo'yicha tadqiqotlar etarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "MEXOVAYA MODA" OK bilan tuzilgan №53-22 sonli "Teri chiqindilarini qayta ishlash va yog'lash jarayonida mahalliy ikkilamchi mahsulotlardan foydalanish" (2022-y.) hamda №22-23 sonli "Mahalliy yog' chiqindilari asosida qorako'l yarim mahsulotining yog'lantirish texnologiyasini ishlab chiqish" (2023 y.) mavzularidagi xo'jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yog'li kompozit materiallarni olish, ularni turli kimyoviy modifikatsiya usullari bilan yaxshilash hamda ularning fizik-kimyoviy va funksional

xossalarini aniqlash orqali sanoatda qo'llash imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Pilla g'umbagidan yog'larni ajratib olish va ularning tarkibini aniqlash;

Pilla g'umbagidan ajratilgan yog'lar asosida emulgatorlar va murakkab efir olish texnologiyasini ishlab chiqish;

Pilla g'umbagidan ajratilgan yog'lar asosida kompozitlar olish va ularning mexanik va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash;

Ishlab chiqilgan yog'lovchi kompozitsiyalar asosida astarlik va poyabzal ustki qismi uchun charm yarim mahsulotini yog'lantirish texnologiyasini ishlab chiqish;

Pilla g'umbagidan yog'larni ajratish va ularni modifikatsiyalash texnologiyasini iqtisodiy jihatdan baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida pilla g'umbagi va undan ajratilgan yog' va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari, ekstraksiya benzini, geksan, natriy gidrosulfit, kobalt (II) atsetat, benzilxlorid, natriy gidroksid, sulfat kislota, natriy gidrokarbonat, izopropil spirti, wet blue hamda charm tayyor mahsuloti olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy sanoat yonaki mahsuloti hisoblangan pilla g'umbagidan yog'ni ajratish jarayoni, ajratilgan yog'ni modifikatsiyalash jarayoni, murakkab efir olish jarayoni, yog'lovchi kompozitsiya tayyorlash jarayoni olingan bo'lib, charm yarim mahsulotini yog'lantirish texnologiyasi takomillashtirish orqali tayyor mahsulotning fizik-mexanik, kimyoviy hamda funksional-strukturaviy xossalarini yaxshilash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida nazariy va tajribaviy tadqiqotlar, jumladan ajratib olingan va modifikatsiyalangan yog'lovchi moddalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini hamda ular asosida yog'lantirilgan charmlarning strukturaviy-funksional xossalarini tadqiq etishda infraqizil spektroskopiya (IQ), skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) hamda binokulyar mikroskopiya, gaz xromotografiyasi mass-spektrometrik (GX-MS) tahlillari kabi zamonaviy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pilla g'umbagidan yog'lovchi moddalarni ekstraksiyalashning maqbul sharoitlari: ekstragent sifatida 1:3 nisbatda geksandan foydalanilganda 2 soat mobaynida mahsulot unumi 22,2 % ni tashkil qilishi aniqlangan;

ajratilgan pilla g'umbagi yog'i tarkibining xromatografik tahlili asosida taqqoslanilayotgan moddalarga nisbatan monoto'yinmagan, bitta qo'sh bog'li yog' kislotalar miqdori 9,45 -24,2 % ni tashkil etishi aniqlangan;

Pilla g'umbagi yog'ini natriy gidrosulfit bilan kimyoviy modifikatsiyalash asosida charmni yog'lovchi emulsiyaning barqarorligini oshiruvchi emulgator olingan;

Pilla g'umbagidan yog'larni ajratish va ularni modifikatsiyalash asosida charmni yog'lovchi emulsiya uchun emulgator olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Pilla g'umbagidan yog'lar ajratib olingan va ularning sifat va miqdoriy tarkibini aniqlashning metodikasi ishlab chiqilgan;

Pilla g'umbagidan ajratilgan yog'lar asosida emulgatorlar olish texnologiyasining maqbul parametrlari ($t, ^\circ\text{C} = 37$; $\text{yog}' = 100$; $\text{NaHSO}_3 = 40\%$ li eritmadan 75 g olindi; $\tau = 45-60$ min) aniqlangan;

Pilla g'umbagidan ajratilgan yog'lar asosida kompozitlar olish usuli ishlab chiqilgan;

kompozitsiyalar asosida charm yarim mahsulotini (astarlik va poyabzal ustki

qismi) yog‘lantirish texnologiyasining amaliyotga joriy etilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan yangi organik birikmalar, ya’ni pilla g‘umbagi yog‘ining modifikatsiyalangan mahsuloti emulgator va murakkab efirning hamda tayyor charm mahsulotlarining identifikatsiyasiga asoslangan xulosa va tavsiyalar, zamonaviy fizik-kimyoviy usullardan (IQ-spektroskopiyasi, GX-MS xromotografiya, skanerlovchi elektron va binokulyar mikroskopiya tahlillari) foydalanilganligi, tajriba va nazariy jihatdan tadqiqot natijalarining o‘zaro mutanosibligi hamda olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pilla g‘umbagi yog‘i asosida yangi organik birikmalar emulgator va murakkab efir olish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etilganligi, olingan yog‘lovchi moddalarning nazariyasi va ularni charmni yog‘lantirish amaliyotini rivojlantirish uchun muhim o‘rin tutishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mahalliy sanoat yonaki mahsuloti hisoblangan pilla g‘umbagi yog‘i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlarini charm sanoatida yog‘lantirish jarayonida amaliyotga joriy etish, yog‘lovchi moddalarni mahalliyashtirish orqali texnologiyani takomillashtirishga, shuningdek astarlik va poyabzal ustki qismi uchun ishlab chiqarilgan charmning strukturaviy-funksional xossalarini yaxshilash bilan birga iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy sanoat yonaki mahsuloti pilla g‘umbagi yog‘i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari asosida ishlab chiqilgan kompozitsiya bilan astarlik va poyabzal ustki qismi uchun olingan charmni yog‘lantirish texnologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

pilla g‘umbagidan ajratilgan yog‘ asosidagi yog‘lovchi kompozitsiya astarlik charm yarim mahsulotlarini yog‘lashda “YUKSALISH CHARM SANOAT SERVIS” MCHJ da amaliyotga joriy etilgan (“O‘ZCHARMSANOAT” ning 2024-yil 24-iyuldagi AS-7-2152 son ma’lumotnomasi). Natijada charmning pishish haroratini +4,6 °C ga oshishiga hamda charmning 10 MPa uzilishdagi mustahkamligining 0.12 MPa ga, 5 MPa kuchlanishdagi uzayishni 8,1 % ga yaxshilash imkonini bergan;

pilla g‘umbagidan ajratilgan yog‘, murakkab efir va emulgator asosidagi yog‘lovchi kompozitsiya ustki charm yarim mahsulotlarini yog‘lashda “Gold Leather Export Import” MCHJ da amaliyotga joriy etilgan (“O‘ZCHARMSANOAT” ning 2024-yil 24-iyuldagi AS-7-2152 son ma’lumotnomasi). Natijada charm yarim mahsulotini yog‘lantirish jarayonida import mahsulotlari o‘rniga mahalliy yog‘lovchi resurslar asosidagi kompozitsiyani qo‘llash hamda nazorat charmlaridan qolishmaydigan va davlat standartlari talabiga to‘liq javob beradigan charm olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yangi va rivojlanayotgan manbalardan yog‘ va moylar olinishining istiqbolli yo‘nalishlari va ularning sanoatdagi ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyot manbaalarining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, xususan, yog‘ tarkibli chiqindilarning manbalari va resurslari, ularni qayta ishlash jarayonida olingan mahsulotlar, noan‘anaviy mahsulot turlaridan olingan yog‘lovchi moddalarning kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarining o‘ziga xos xususiyatlari, yog‘ va moy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda kimyolashtirishning ta‘siri, modifikatsiyalangan yog‘ va moylarning charm-mo‘yna sanoatida qo‘llashning zamonaviy holati bo‘yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan. Sanoat miqyosida qo‘llaniladigan yog‘lovchi moddalarni mahalliyashtirish, ularning yangi manbalarini izlab topish, ularni yog‘ saqlagan chiqindi manbalari va resurslari tarkibidan ajratib olish, chiqindisiz texnologiya yaratish, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda mahsulot sifatini oshirish yo‘llarini tanlab olish orqali texnik maqsadda qo‘llaniladigan, ekologik xavfni, yani atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirish da o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, charm uchun yangi yog‘lovchi kompozitsiyalar olishga doir zamonaviy adabiyotlar tahlil qilingan bo‘lib, uning natijasi asosida tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Pilla g‘umbagidan yog‘lovchi modda olish, uni modifikatsiyalash va undan yog‘lovchi kompozitsiya ishlab chiqishda qo‘llanilgan tadqiqot uslublari va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida amaldagi tadqiqot ob‘ektlari: reaktivlar, reagentlar va boshqa kimyoviy materiallarning umumiy tavsifi, charm va mo‘yna yarim mahsulotlarini yog‘lantirish jarayoni uchun yog‘ kompozitlarini olish texnologiyasi, kimyoviy modifikatsiyasi va ularni qo‘llash uchun tanlab olingan tadqiqot ob‘ektlarining tavsifi, qo‘llanilgan laboratoriya jihozlari sxemalarining tavsifi va ulardan foydalanish uslublari, yog‘lovchi moddalarning kimyoviy tarkibi va xossalarini o‘rganish usullari hamda charm va mo‘yna tayyor mahsulotlarining strukturaviy-funksional xossalarini aniqlash uslublari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yog‘ saqlagan ikkilamchi resurslarni qayta ishlash texnologiyasining nazariy asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobi pilla g‘umbagidan yog‘lovchi modda ajratib olish, mahsulot unumiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlashga, GX-MS tahlil asosida pilla g‘umbagi yog‘ tarkibini tadqiq etishga, ajratilgan yog‘dan emulgator sintezi va uning asosiy xossalari tadqiqiga, Funkcional xususiyatlarga ega yog‘lovchi moddalar olishda kimyoviy modifikatsiyalash texnologiyasini qo‘llashga, kimyoviy modifikatsiyalangan yog‘lovchi moddaning IQ-spektroskopik tahlili va uning asosiy xossalarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot ishlari uchun Romitan tumanida joylashgan “ROMSTAR” O‘zbek-Amerika qo‘shma korxonasi hamda Buxoro shahrida joylashgan “BUKHARA BRILLIANT SILK COLLECTION” BBC mas‘uliyati cheklangan jamiyatining mahalliy pilla g‘umbaklaridan foydalanildi (1-rasm).

Tajribaviy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pilla g‘umbagidan yog‘ni ekstraksiyalash jarayonida chiqadigan mahsulot unumiga tanlangan ekstragentlar,

ularning nisbati va jarayon davomiyligi ta'sir etadi. Binobarin, ekstragentlar 1:4 nisbatda oshirilganda, ekstragentlar sarfi, qo'llaniladigan qurilma hajmi hamda davomiylilik oshirilganda ham mahsulot unumi 1:3 nisbatda 2 soat mobaynida olingan mahsulot unumining ($0,16\% \pm 0,1\%$) sezilardi darajada oshishiga imkon bermaydi. Shuning uchun, pilla g'umbagidan yog'lovchi moddalarni ekstraksiyalashning optimal varianti sifatida (MPG':EB yoki G) 1:3 nisbatda 2 soat mobaynida davom ettirish maqsadga muvofiq deb belgilab olindi.



a)



b)

1-rasm. Mahalliy sanoat korxonalarida yetishtiriladigan pilla (a) va uning g'umbagi (b)

Jumladan, pilla g'umbagidan yog'ni ajratib olish uchun ekstragent sifatida ekstraksiya benzini (EB) va geksan (G) dan foydalanilib, natijalar 1-jadvalda keltirildi:

1-jadval

Pilla g'umbagidan yog'ni ajratib olishda mahsulot unumiga davomiylilik va boshlang'ich moddalar nisbatining ta'siri


№	MPG':EB mass.nis	τ , daqiqqa	ω , %	№	MPG':G (C ₆ H ₁₄) mass.nis	τ , daqiqqa	ω , %
1	1:2	30	4,04	4	1:2	30	5,69
		60	6,23			60	8,46
		90	8,75			90	10,67
		120	8,78			120	10,83
		150	-			150	-
2	1:3	30	16,47	5	1:3	30	17,05
		60	19,22			60	19,93
		90	20,15			90	21,14
		120	22,08			120	22,19
		150	22,11			150	22,23
3	1:4	30	17,01	6	1:4	30	17,23
		60	20,18			60	20,21
		90	21,53			90	21,6
		120	22,14			120	22,35
		150	22,17			150	22,39

Pilla g'umbagidan olingan yog'ning kimyoviy tarkibini aniqlash GX-MS (gaz xromatografiyasi-mass-spektrometrik) xromotogrammada bajarildi. Yog' kislotalari tarkibi ularning metil efirlari shaklida o'rganildi. Buning uchun geksan ekstrakti asosida

olingan pilla g'umbagi yog'i namunasi metanoldagi 2 M HCl eritmasi bilan qayta efirlash olib borilib, gaz xromatografiyasi-mass-spektrometrik (GX-MS) tahlili o'tkazildi. Mazkur tahlil uchun 30 m uzunlikdagi, 0,32 mm ID va 0,25 mkm qo'zg'almas faza qalinligida bo'lgan HP 5 kapilyar ustunida GX-MS YL6900 jihozdan foydalanildi.

Xromatografik tahlil ekstraksiya benzini asosida hamda geksan ishtirokida ekstraksiya qilingan pilla g'umbagi yog'i uchun GX-MS xromatogrammasida o'tkazildi.

Xromatografiya shartlari: termostat harorati - boshlang'ich - 60°C, davomiylig - 3 daqiqa (izotermik rejim); 15°C/daq tezlikda (haroratni dasturlash rejimi) 250°C gacha va 250°C (izotermik rejim)da 3 daqiqa isitiladi. Bunda, injektor harorati - 250°C, geliy gazining oqimi - 1 ml/daq, Split Ratio-1/100. Detektorning massa parametrlari - erituvchining kechikishi - 3 daqiqa, emissiya - 50mA, skanerlash diapazoni - 30-350 amu, skanerlash tezligi - 1600 amu/sek, ion manbai harorati - 230°C, uzatish harorati - 280°C. Tahlil davomiyligi - 21 daqiqani tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Geksan asosida ekstraksiya qilingan pilla g'umbagi yog'ining xromatogrammasi

Komponentlar olingan massa spektrlarini NIST massa spektri kutubxonasi bilan taqqoslash va saqlash vaqti bilan aniqlandi. Miqdoriy tahlil uchun ichki normalizatsiya usuli qo'llanildi.


Shuningdek, pilla g'umbagidan ajratilgan yog'ning kimyoviy tarkibini har tomonlama o'rganish maqsadida GX-MS tahlil olib borilib, charm sanoatida keng qo'llaniladigan baliq yog'i tarkibini tashkil etuvchi yog' kislotalari tarkibi bilan solishtirilgan holda tahlil natijalarining qiyosiy tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, taqqoslanayotgan pilla g'umbagi tarkibidagi yog' kislotalari, baliq yog'i tarkibidagi yog' kislotalariga solishtirilganda miqdoriy jihatdan ahamiyatli bo'lib, jumladan olein kislotasi - 14.56 % , linol kislotasi - 2.64%, linolein kislotasi esa - 31.99 % ko'p miqdorda saqlashi aniqlandi. To'yingan yog' kislotalarining umumiy miqdori pilla g'umbagi yog'i bo'yicha keltirilgan adabiyotga muvofiq deyarli farq qilmaydi, ammo monoto'yinmagan, bitta qo'sh bog'li yog' kislotalar miqdori 9,45 % ga ko'proqni tashkil etgan, baliq yog'iga nisbatan 24,2 4% ga, $\sum n=6/\sum n=3$ munosabatiga ko'ra hammasi bir xil, ya'ni. 0,2 ga tengligi aniqlangan.

**Pilla g‘umbagi va baliq yog‘idan ajratilgan yog‘ tarkibidagi
yog‘ kislotalarining qiyosiy tavsifi**

Yog‘ kislotalari	Ipak g‘umbagi yog‘i adabiyot bo‘yicha	Baliq yog‘i	Pilla g‘umbagi yog‘i
C(14:0)	0,5	3,8	0,55
C(14:1)	-	0,3	
C(15:0)	0,2	-	0,18
C(16:0)	19,6	11,6	18,6
C(16:1)	0,6	7,0	0,72
C(17:0)	-	0,7	
C(18:0)	6,9	2,3	5,83
C(18:1, n-9)	28,8	16,9	31,46
C(18:2, n-6)	6,0	4,9	7,54
C(18:3, n-3)	32,1	1,2	23,19
C(19:0)	-	0,1	-
C(20:0)	0,1	0,2	0,16
C(20:1)	-	1,3	
C(20:4)	-	-	0,96
C(20:5, n-3)	-	9,6	-
C(22:0)	-	6,8	-
C(22:1)	-	0,4	-
C(22:6, n-3)	-	11,4	-
∑SFA	27,3	25,5	25,32
∑MUFA	29,4	25,9	32,18
∑n=6	6,0	4,9	7,54
∑n=3	32,1	22,2	33,19
∑n=6/∑n=3	0,2	0,2	0,2


Ajratilgan pilla g‘umbagi yog‘ining xromatogrammasiga ko‘ra, emulgator sintezi jarayoni uchun asosan to‘yinmagan yog‘ kislotalari ishtirok etishini inobatga olib, shuningdek umumiy yog‘ kislotalariga nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etgan, bundan tashqari qo‘shbog‘ saqlagan linolin (33,19%), linol (7,54%) va olein (31,46) kabi to‘yinmagan yog‘ kislotalari ishtirokida natriy gidrosulfit ta‘sirining reaksiya mexanizmi ko‘rib chiqilib, umumiy reaksiya mexanizmi olindi:



1- formuladan ko‘rinib turibdiki, linolen kislotada ham karboksil guruh va qo‘shbog‘ning mavjudligi kimyoviy modifikatsiyalanish imkonini kengaytiradi. NaHSO₃ ni tanlashdan maqsad, mazkur nordon tuz yog‘ kislotalari molekulalarini manfiy qutblantiradi. Bu esa, suvning musbat qutbli tomoni bilan gidratlanadi. Bu mexanizm birikish reaksiyasi asosida boradi. Reaksiya mexanizmining o‘ng tomonida quyidagi maqsadli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Jumladan, mazkur reaksiyada natriy gidrosulfit karboksil guruh yaqin joylashgan qo‘shbog‘ga birikadi. Ushbu jarayon izohlanadigan bo‘lsa, bunda karboksil guruhi yaqin joylashgan qo‘shbog‘da elektron

zichlikning ortishi, ya'ni bu molekullarda elektron zichlik karboksil guruhdagi kislorod atomi tomoniga siljishi hisobidan bo'ladi va birikish reaksiyasi aynan shu joyda unumli boradi. Keltirilgan reaksiya mexanizmining o'ng tomonida difil tuzilishga ega gidrofob va gidrofil qismlardan iborat SFM hosil bo'lganligini kuzatish mumkin. Molekulaning gidrofob qismida qutbsiz yog' molekullari eriydi. Molekulaning gidrofil qismi esa qutbli suv molekullarida eriydi. Molekula eritmada dissotsiyalanib, manfiy zaryadli qutbga ega bo'lgan – R-CHOSO₂²⁻ anion tipidagi SFM ni hosil qiladi.


Ajratilgan pilla g'umbagi yog'i tarkibida xususan linolin to'yinmagan yog' kislotalari ko'p miqdorda mavjudligi inobatga olinib, bunga ko'ra massa nisbatda olinishi nazariy jihatdan belgilab qo'yildi. Sintez mahsuloti hisoblagan emulgator to'g'risida yanada aniq tasavvurga ega bo'lish maqsadida FTIR-2000 IQ spektrida (Perkin-Elmer) tahlil o'tkazildi. Mazkur tadqiqot natijalari "Infraqizil spektroskopiyadagi xarakterli chastotalar jadvali" ga muvofiq tahlil qilindi. IQ – spektr tahlili natijalari tabiiy yog'ni natriy gidrosulfid ishtirokida emulgirash, individual xususiyatlarga ega bo'lgan modifikatsiyalangan mahsulot, emulgator olinganligini ko'rsatdi.




2 - rasm. Pilla g'umbagi yog'i va natriy gidrosulfid asosida sintez qilingan emulgatorning IQ-spektrogrammasi

Sintez qilingan emulgator kimyoviy tarkibi bo'yicha ham yog'larga hamda SFM larga tegishli guruhlar saqlashi, mazkur moddadan emulgator va yog'lovchi modda sifatida foydalanish imkonini beradi. Xususan, 1172.72 sm⁻¹, 1128.36 sm⁻¹, 1033.85 sm⁻¹, 1004.91 sm⁻¹ va 831.32 sm⁻¹ keng diapozonda sulfo guruhlar saqlashi, turli tarkibli aralashmada bir qator kimyoviy jarayonlar borishi natijasida sulfo guruhlarining hosil bo'lishi va ularning bevosita uglerod atomlari bilan birikishi shular jumlasidandir.

Tadqiqot ishlarining keyingi bosqichida ajratib olingan pilla yog'ini terini qayta ishlashda qo'llash samarasini yanada oshirish uchun benzilxlorid asosida eterifikatsiya reaksiyalari o'tkazilib, murakkab efir sintez qilindi. Ushbu reaksiya mexanizmining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:



olein kislota benzil xlorid



Murakkab efirlar ishqoriy yoki kislotali muhitda gidrolizga uchraydi, lekin benzilxlorid ta'sir qilinganda, ishqor yog' kislotalarini neytrallashga sarf bo'ladi, natijada muhit neytral muhitga yaqin bo'ladi. Bunda eritma muhiti nazorat qilib turilishi kerak (pH≈7), aks holda muhit ishqoriy tomonga siljiganda, hosil bo'lgan murakkab efir qayta reagentlarga ajraladi. Ta'kidlash kerakki, murakkab efir sintezi benzil xlorid ishtirokida borganda, benzil radikali galogen saqlaganligi sababli reaksiya davomiyligi qisqaradi, yuqori harorat talab etmaydi hamda aromatik xalqaning borligi yog'lovchi moddaning charm strukturasi uzoq saqlanishiga imkon yaratadi.

3-jadval

Eterifikatsiya reaksiyalari asosida olingan murakkab efir asosiy xossalari

№	Ko'rsatkichlar	PG'Yo va IS ishtirokida sintez qilingan ME	PG'Yo va BX ishtirokida sin-tez qilingan ME	GOST 11010-84
1.	Tashqi ko'rinishi, 20 °C haroratdagi konsistensiyasi	Suyuq, bir jinsli qizg'ish jigarrang	Suyuq, bir jinsli jigarrang	Bir jinsli och jigarrangdan-to'q jigarran-gacha
2.	Hidi	o'ziga xos hidli	o'ziga xos hidli	-
3.	Molekulyar massasi	324	372	300-600
4.	20 °C haroratda zichligi, g/sm ³	0,871	0,867	-
5.	Qaynash harorati, °C	239	278	-
6.	Kislota soni, mg KOH/g	13.5	11.2	25 dan yuqori emas
7.	Sovunlanish soni, mg KOH/g	156	146	175 gacha
8.	Efir soni	142.5	135	-
9.	Yog' miqdori, %	99,4	100	97,2 dan kam emas
10.	Suv miqdori, %	0,64	Mavjud emas	1,0 dan ko'p emas

Pilla g'umbagidan ajratib olingan yog'ni kimyoviy modifikatsiyalash asosida olingan mahsulotlarni identifikatsiyalash maqsadida IQ-spektral tahlil o'tkazildi. Pilla g'umbagi yog'i va benzilxlorid ishtirokida eterifikatsiya mahsulotining IQ-spektroskopiyasi natijalari IQ – spektrogrammaning 2910 sm⁻¹ sohada C-H kuchli intensivlikda alisiklik birikmalarga xos cho'qqilar mavjudligi kuzatildi. 2740 sm⁻¹ sohada C-H kuchsiz intensivlikda aldegidlarga xos cho'qqilar mavjudligi aniqlandi. 1715 sm⁻¹ sohada C=O valentli tebranishda kuchli intensivlikda murakkab efirlar hosil bo'lganligini kuzatildi, xususan aromatik murakkab efirlarning bo'lishi ahamiyatga ega. 1500 sm⁻¹ sohada C-C bog'lanishda o'rtacha intensivlikda aromatik uglevodorodlar birikmalari tegishli cho'qqilar, 1430 sm⁻¹ sohada -CH₃ guruhlari o'rtacha intensivlikda alkanlarga tegishli cho'qqilar kuzatildi.

Tadqiqotlarning keyingi bosqichi, eterifikatsiya reaksiyalari asosida olingan murakkab efirlarning asosiy xususiyatlarini o'rganishga uchun tadqiq etilayotgan

murakkab efirlarning asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari tahlili "O'simlik moddalari kimyosi" instituti huzuridagi laboratoriyada aniqlanib, natijalar 3-jadval ko'rinishida keltirildi.

Olib borilgan tadqiqotlar, yonaki mahsulot, pilla g'umbagi yog'idan unumli foydalanish bilan bir qatorda, uning asosida charm sanoati uchun qo'llash mumkin bo'lgan, individual xossaga ega emulgator va murakkab efir sintez qilingani alohida ahamiyatga ega. Chunki charmni yog'lantirish jarayonida yog'lovchi moddalar bilan bir qatorda emulgator va murakkab efirdan foydalanish xossalari yaxshilangan, raqobatbardosh charm olishga imkon yaratadi hamda import yog'lovchi kompozitsiyalarning o'rnini bosadi.

Dissertatsiyaning "Pilla g'umbagidan ajratilgan yog' asosida charm uchun yog'lovchi kompozitsiya ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy samaradorlik" deb nomlangan to'rtinchi bobida pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlarining charm strukturasi ta'sirining tahlili, poyabzal ustki qismi uchun charmni yog'lantirishda pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari asosida yog'lovchi kompozitsiyaning optimal tarkibini ishlab chiqish, astarlik charmini yog'lantirishda mahalliy yog'lovchi materiallarni qo'llash va tayyor mahsulot xossalari ta'sirining tadqiqi hamda charm yarim mahsulotini yog'lantirish jarayonida pilla g'umbagi yog'i asosidagi yog'lovchi kompozitsiyani qo'llashning texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash masalalari yoritilgan.

Yog'lovchi moddalarning samaradorligini oshirish hisobiga yog'lantirish texnologiyasini takomillashtirish maqsadida, ajratilgan pilla g'umbagi yog'i, uning asosidagi emulgator va murakkab efir ishtirokida charm yarim mahsulotini yog'lantirish uchun yog'lovchi kompozitsiyalar ishlab chiqilib, mazkur yog'lovchi tarkiblar asosida yog'lantirilgan charmlarning kimyoviy va fizik-mexanik xossalari ko'rsatkichlari aniqlangan (4-jadval).

Tadqiqotda poyabzal ustki qismi uchun qo'llaniladigan xrom bilan oshlangan, bunga qadar olib borilgan texnologik jarayonlar va operatsiyalar an'anaviy tarzda olib borilgan, engil vaznli yirik shoxli mol terilari olindi. Yog'lantirish jarayoni harorati 50-60°C, SK=1 ga teng bo'lib, jarayon davomiyligi 40-50 daqiqani tashkil etdi. Yog'lovchi kompozitsiya sarfi qirtishlangan charm massiga nisbatan 10 %. Yog'lantirish bo'yash jarayonlarini o'tagan charm yarim mahsulotlari uchun barabanlarda, emulsion yog'lantirish usulida olib borildi. Barabanning aylanish tezligi 10 ayl/min.

4-jadval

Charm yarim mahsulotini yog'lantirish uchun yog'lovchi kompozitsiya tarkibi

№	Yog'lovchi moddalar nomlanishi	Yog'lovchi kompozitsiya sarfi, %				Nazorat varianti
		Tajriba-sinov variantlari				
		1	2	3	4	
1	Yarim sintetik yog' SMX-470	-	-	-	-	30
2	Sintetik yog' SMX-473	-	-	-	-	70
3	Pilla g'umbagidan ajratilgan yog'	50	50	50	50	-
4	Pilla g'umbagi yog'i asosida olingan emulgator	50	40	30	20	-
5	Pilla g'umbagi yog'i asosida olingan murakkab efir	-	10	20	30	-
Σ		100	100	100	100	100

Nazorat charm yarim mahsulotlarini yog‘lantirishda korxonada qo‘llaniladigan import yog‘lovchi moddalar hisoblangan SMX-470 – 3% hamda SMX-473 – 7% olingan. Yog‘lovchi emulsiya tayyorlash uchun dastlab yog‘lovchi moddalar yaxshilab aralashirildi, 50-55 °C haroratli 3-4 qism suv qo‘shildi. Yog‘lovchi emulsiya pH qiymati 7,5. Olingan emulsiya yarim mahsulot yuklangan barabanga quyildi. Tajriba – sinov variantlari uchun yog‘lantirish jarayoni parametrlari ham nazorat variantlari parametriga muvofiq bajarildi.

Yog‘lantirish jarayonidan so‘ng, qolgan barcha pardozlash jarayonlari an‘anaviy uslub asosida bajarilib, tayyor charmlarning kimyoviy tarkibi va fizik-mexanik xossalari o‘rganildi.

Tajriba – sinov variantlari namunalari belgilangan GOST talablariga javob berish bilan birga, nazorat namunalari nisbatan ko‘rsatkichlari ancha yaxshilanganligini ko‘rish mumkin. Bunga asosiy sabab, pilla g‘umbagi yog‘ining modifikatsiyalangan mahsulotlari tarkibida funksional guruhlar saqlaydi, bu esa yog‘ moddalari yaxshi saqlashi hisobiga, namlik miqdorining oshishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, kompozitsiya tarkibi murakkab efirlarni saqlashi, yog‘larning teri kollageni bilan bog‘lanishini ifodalaydi, buni mustahkamlik xossalarini oshganligidan kuzatish mumkin.

5-jadval


Tajriba-sinov va nazorat variantlarida yog‘lantirilgan tayyor charmning kimyoviy va fizik-mexanik xossalari ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Tajriba-sinov varianti				Nazorat varianti	GOST 939-94
	1	2	3	4		
Namlik, %	14,5	14,8	13,6	12,9	14,2	10-16
Xrom oksidi, %	4,1	4,6	4,5	3,8	3,7	3,5 dan kam emas
Kul, %	6,2	6,7	5,8	3,4	5,3	-
Yog‘ moddalari miqdori, %	7,4	7,1	6,3	5,7	5,9	3,7-10,0
Qalinligi, mm	1,2	1,1	1,0	0,9	1,2	0,9-1,2
Pishish harorati, °C	88,5	89,2	87,3	87,9	88,6	-
Uzilishdagi mustahkamlik, 10 MPa	2,46	2,53	2,65	2,78	2,41	1,5 dan kam emas
10 MPa kuchlanishdagi uzayish, %	41,2	46	46,4	46,8	40,6	20-40

Biroq, murakkab efirlar konsentratsiyasining oshishi charm strukturasi haddan tashqari yumshashi va elastikligining oshishiga sabab bo‘ladi, bu esa poyabzal ustki qismi uchun olinadigan charmlarning shakl barqarorlik xossalarini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun, yog‘lovchi kompozitsiya tayyorlashda murakkab efir sarfini nazorat qilishni talab etadi. Murakkab efirlarni qo‘llash, yog‘lovchi moddalarni ichki strukturasi tez singishida imkon yaratsada, biroq yuza qismini nisbatan tez qurishiga sabab bo‘ladi, buni namlik miqdorining kamayganligi orqali izohlash mumkin (5-jadval).

Charmni yog‘lantirish orqali yog‘lovchi moddalarni charm strukturasi kiritish emas, balki ularni strukturada ekspluatatsiya davrida uzoq saqlanishini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Xususan, astarlik charmlarning nafaqat fizik-mexanik xossalari yaxshilangan, balki kimyoviy, gigienik xossalari, jumladan terga chidamlilik xossalari ham yuqori bo‘lishi kerak. Yog‘lantirish jarayonini o‘tamagan hamda yog‘lantirish jarayonlarini an‘anaviy va tajriba-sinov usulida o‘tagan charm yarim mahsulotlarining yaqqol tasvirlarini ko‘rish maqsadida, ularning mikrofotografiyalari elektron va

binokulyar mikroskoplarda olindi (3-rasm).



a) va d) - yog'lantirish jarayonini o'tamagan charm yuzasi va ko'ndalang kesimining elektron mikroskopda ko'rinishi; b) va c) - mahalliy yog'lovchi va import yog'lovchi moddalar asosida yog'lantirilgan charmlarning binokulyar mikroskopda ko'rinishi; e) va f) - mahalliy yog'lovchi va import yog'lovchi moddalar asosida yog'lantirilgan charmlarning elektron mikroskopda ko'rinishi.

3-rasm. Yog'lantirish jarayoni o'tamagan, mahalliy yog'lovchi va import yog'lovchi moddalar asosida yog'lantirish jarayonini o'tagan

Yog'lovchi moddalarsiz, charmni tashkil etgan tolalar mo'rt, sinuvchan, gidrofil va qattiq holatda bo'ladi (3-rasm (a) va d)). Yog'lantirish jarayoni charmning bir qator xossalari o'zgartiradi. Yog'lovchi moddalarni kiritish tufayli oshlangan charm tolalarini yog' qatlami bilan qoplab, unga yumshoqlik, egiluvchanlik, gidrofoblik va chiroyli grif (mereya) beradi.

YSHM terilaridan poyabzal ustki qismi uchun charm ishlab chiqarishning yog'lantirish jarayonida mahalliy pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari emulgator va murakkab efirdan ishlab chiqilgan kompozitsiyani hamda korxonada sharoitida an'anaviy tarzda qo'llanilib kelinayotgan yog'lovchi kompozitsiyalarni umumiy sarfini hisoblagan holda iqtisodiy samaradorlik aniqlandi.

Yog'lantirish jarayonida murakkab efir asosidagi pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari asosidagi mahalliy yog'lovchi kompozitsiyadan foydalanilganda faqat yog'lovchi kompozitsiya hisobidan haqiqiy iqtisodiy samaradorlik 1 797 000 so'm tashkil etdi.

YSHM terilaridan poyabzal ustki qismi uchun charm ishlab chiqarishda faqatgina yog'lantirish jarayonida pilla g'umbagi yog'i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari asosidagi kompozitsiyani qo'llash natijasida kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 43 128 000 so'm tashkil etadi.

XULOSA

Yog‘li kompozitlarni olish, kimyoviy modifikatsiyalash texnologiyasi va ularni qo‘llash imkoniyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Pilla g‘umbagidan yog‘lovchi moddalarni ekstraksiyalashning optimal varianti sifatida ekstragent sifatida 1:3 nisbatda geksandan foydalanish tavsiya etilib, 2 soat mobaynida mahsulot unumi 22,2 % ni tashkil etganligi aniqlandi.

2. Ajratilgan pilla g‘umbagi yog‘i tarkibining xromatografik tahlili, taqqoslanilayotgan moddalarga nisbatan monoto‘yinmagan, bitta qo‘sh bog‘li yog‘ kislotalar miqdori 9,45 -24,2 % ni tashkil etishi va uning modifikatsiyalash imkoniyati yuqoriligi isbotlandi.

3. Pilla g‘umbagi yog‘ini natriy gidrosulfit ishtirokida kimyoviy modifikatsiyalash asosida olingan emulgator moddaning qutblanishiga olib keladi va bu yog‘lovchi kompozitsiyaning emulsiyada barqarorligini ta‘minlashi isbotlandi.

4. Pilla g‘umbagi va benzil xlorid ishtirokida eterifikatsiya reaksiyalari orqali murakkab efir sintez qilinganda, benzil radikali galogen saqlaganligi sababli reaksiya davomiyligi qisqaradi, yuqori harorat talab etmaydi va murakkab efirda aromatik xalqaning mavjudligi, uning strukturada uzoq saqlanishiga olib kelishi aniqlandi.

5. Pilla g‘umbagi yog‘i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlaridan astarlik va poyabzal ustki qismi uchun charm yarim mahsulotlarini yog‘lantirishda yog‘lovchi kompozitsiyalar va jarayon parametrlari aniqlandi.

6. Pilla g‘umbagi yog‘ining modifikatsiyalangan mahsulotlarini qo‘llash, import yog‘lovchi moddalarni qo‘llashga nisbatan o‘rtacha miqdorda yog‘ moddalarining miqdorini 1.2 % ga, uzilishdagi mustahkamlikning 0.12 MPa ga hamda 10 MPa kuchlanishdagi uzayishning 5.4 % ga oshishiga imkon yaratdi.

7. Astarlik charmlarining mikrofotografiyalari pilla g‘umbagi yog‘i hamda uning modifikatsiyalangan mahsulotlarining charm strukturasi nafaqat tekis taqsimlanishi, balki ularning tolalararo singishiga va ularni strukturalanishi aniqlandi.

8. Ishlab chiqarish sharoitida YSHM terilaridan poyabzal ustki qismi uchun charm ishlab chiqarishda faqatgina yog‘lantirishda pilla g‘umbagi yog‘i va uning modifikatsiyalangan mahsulotlari, jumladan emulgator va murakkab efir asosidagi kompozitsiyani qo‘llash natijasida kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 43 128 000 so‘m tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/2025.27.12.К/Т.12.05 ПРИ ТЕРМЕЗСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

НОРМУРОДОВ БОБОМУРОД РУЗИМУРАТОВИЧ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИРОВАЛЬНЫХ КОМПОЗИЦИЙ,
ХИМИЧЕСКОЙ МОДИФИКАЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ
ПРИМЕНЕНИЯ**

02.00.14 - Технология органических веществ и материалов на их основе

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по техническим наукам

Термез – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/T3725.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Учёного совета (www.terstu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Дустов Сайфулло Идиевич

кандидат химических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Камолов Лукмон Сироджиддинович

доктор химических наук, профессор

Джумаева Зулхумор Эргашевна

Кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится « 24 » апреля 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 при Термезском государственном университете (Адрес: 190111, г.Термез, ул.Баркамол авлод, 143. Тел.: (+99876) 221-74-55, Факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 190111, г.Термез, ул.Баркамол авлод, 143. Тел.: (+99876) 221-74-55).

Автореферат диссертации разослан « 7 » апреля 2026 года
(протокол рассылки № 4 от « 7 » апреля 2026 года.)



И.А. Умбаров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Ш.А. Касимов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор химических наук, профессор

Р.В. Аликулов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В результате высоких темпов развития ассортимента химических материалов, используемых на предприятиях по переработке кожи во всем мире, спрос на производимые изделия из натуральной кожи растет из года в год. Особенно для процесса жирования кожаных полуфабрикатов выделение масла из коконов, их химическая модификация и получение на их основе маслянистых композитных материалов позволяет применять их в качестве функционального материала. Соответственно, совершенствование термических, механических и сорбционных свойств жировальных композиций на основе масла кокона приобретает важное значение при создании эффективных ресурсосберегающих технологий, направленных на повышение их технологических свойств и снижение расхода химических материалов, являющихся импортным продуктом.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на полимеризацию, каталитические превращения и модификацию масляных композитов функциональными группами. В этом направлении особое внимание уделяется разработке альтернативных технологий, определению химического состава и изучению свойств жировальных композиций с учетом методов химической модификации для повышения их стабильности. Также акцент делается на расширение возможностей применения таких композиций в промышленности, фармацевтике и экологической среде. В частности, важным направлением является разработка импортозамещающих жировальных композиций для процесса жирования кожи на основе масла из коконов — побочного продукта шелковой промышленности — и его модифицированных продуктов.

В нашей республике высокий спрос на высококачественную кожу и кожевенно-обувную продукцию предопределяет дальнейшее развитие отрасли с учетом меняющихся тенденций как в мировом сообществе, так и внутри страны. Это позволяет пересмотреть химические вещества, применяемые при обработке кожи, локализовать их, повысить эффективность и достичь определённых результатов благодаря проведению широкомасштабных исследований. В республике уделяется большое внимание внедрению инновационных технологий, созданию научно обоснованной системы ведения промышленных объектов и реализации мер по охране окружающей среды. В «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы²» определены приоритетные направления развития экономики, в частности ускорение производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, а также переход к новым видам продукции и технологий. В этом контексте особое значение приобретает разработка жировальных композиций на основе масла из коконов — побочного продукта шелковой промышленности — и его модифицированных производных.

